

Qoraqalpog‘Istonda Kichik Tadbirkorlik Sub’ektlari Rivojini Qiyosiy Statistik Tahlili

*Sitmuratov O‘ktam Tengelovich*¹

Annatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik biznes rivojlanishining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Buning uchun kichik biznes sub’ektlarining muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushning mamlakat miqyosidagi ulushga nisbatan farqidan foydalanilgan. Mintaqadagi ulushning kichik yoki yuqoriligiga qarab mintaqada kichik biznes rivoji turli yo‘nalishlarda baholanilgan. Olingan natijalarga tayanilgan holda mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlari taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: YaIM, bandlik, kichik biznes, eksport, import, sanoat, variatsion kenglik.

Kirish

Kichik biznesni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ya‘ni, kichik biznes avvalo aholi bandligini ta‘minlash hisobiga turmush faravonligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, tadqiqolardan ma‘lum bo‘lishicha jahon xo‘jaligini taraqqiyoti yuqori darajada kichik biznes bilan bog‘liq, ya‘ni jahon iqtisodiyoti rivojlanishining 90 foizi, aholi bandligining 70 foizi ushbu soha hissasiga to‘g‘ri keladi [11]. Biroq, kichik biznesning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish tabiiyki uni qo‘llab quvvatlash bilan ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shu sababdan turli iqtisodiy inqirozlar sharoitida sohani qo‘llab – quvvatlash talab qilinadi. Shu sababdan iqtisodiy inqirozlar hisobiga vujudga kelayotgan tebranishlarning salbiy oqibatlarini kamaytirishni dunyoning turli mamlakatlari iqtisodchilarining asosiy tadqiqot mavzusiga aylanmoqda [1]. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va kichik biznes rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik ahamiyatli hisoblanib, uni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Shu sababdan kichik tadbirkorlik subyektlari rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq qilish, ularni rivojlanish darajasini turli ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar kesimida baholash muhim muammolardan bo‘lib qolmoqda. Jumladan, hududlar kesimida soha rivojini ta‘minlashda vujudga keladigan nomutanosibliklarni soha rivojiga ta‘sirini baholash masalalariga alohida e‘tibor qaratishni talab qilmoqda. Shu sababdan mazkur maqolada kichik tadbirkorlik subyektlarini mintaq kesimidagi rivoji qiyosiy tahlili amalga oshirib o‘tilgan.

Adabiyotlar sharhi

Kichik biznes taraqqiyotini ta‘minlashda uning hududlar kesimidagi farqlarga e‘tibor qaratish, mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash asosida barqarorlikka erishish taraqqiyotni ta‘minlashning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bozorlarda vujudga kelayotgan beqarorlik, raqobatning kuchayishi, mamlakatda tashqi va ichki iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi tufayli kichik biznes taraqqiyotini ta‘minlashda muammolar vujudga kelmoqda [2]. Jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan turli tebranishlar kichik biznesga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Koronavirus pandemiyasidan keyingi globallashuv jarayonlari mamlakatlar o‘rtasidagi erkin bozor almashinuvini cheklash jarayonlari bilan almashtirilishi o‘ziga xos muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda [3]. Bu kabi holatlarda hududiy rivojlanishdagi muammolarga bartaraf etish maqbul yechimlardan hisoblanadi.

Bu kabi sharoitlarda kichik biznesni rivojlantirishning nazariy jihatlari, mintaqaviy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va tarmoq muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda [4-8]. Kichik

¹ Qoraqalpog‘ davlat universiteti tadqiqotchisi



biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun zaruriy infratuzilmani shakllantirish, jumladan mehnat bozori [8], investitsiyalar manbalari, jozibador soliq tizimi, jamoatchilik bilan aloqalar uchun axborot almashish kanallari samaradorligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda [9, 10]. Yuqorida keltirib o‘tilganlar kichik biznes rivojlanishini mintaqalar kesimida qarab chiqish, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarni baholash lozimligini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan Qoraqalpog‘iston respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari rivojini ifodalovchi ko‘rsatkichlar dinamikasi turli ijtimoiy-iqtisodiy korsatkichlar kesimida qarab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyotini garovi bo‘lib, raqobat kurashini shakllantirish, innovatsion jarayonlarni tezlashtirish asosida hududning ijtimoiy - iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshishiga xizmat qiladi. SHu sababda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi farqlarni kamaytirish, ularda aholi turmush faravonligini oshirishda kichik biznesni rivojini ta‘minlash muhim omillardan bo‘lib hisoblanadi. Bir so‘z bilan aynganda mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash, mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish, hududlarning rivojlanishidagi farqlarni barataraf etishda kichik biznes muhim drayver vazifasini bajaradi.

Kichik biznesni rivojlantirishdagi muhim muammolardan biri bu ularning hududlar kesimidagi taraqqiyotini ta‘minlash hisoblanadi. YA‘ni, sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni hududlar kesimida turli darajalarda tashkil qilishini va amalga oshirilishi ular natijalaridagi farqlarni kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar, nomutanosibliklar vujudga kelmoqda. SHuni hisobga olgan holda tadqiqotimiz ob‘ekti bo‘lgan Qoraqalpog‘iston respublikasida kichik biznes rivojini qiyosiy statistik tahlili amalga oshirildi.

Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun Qoraqalpog‘iston respublikasida kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining muhim ko‘rsatkichlari bo‘yicha ulushining mamlakat miqyosidagi darajasidan farqidan foydalanildi. YA‘ni, ushbu ko‘rsatkich mamlakat miqyosidagi, o‘rtacha qiymatga nisbatan mintaqadagi holatni baholash imkonini beradi.

Dastlab mintaqada kichik biznes rivojini umumiy baholashga xizmat qiladigan muhim ko‘rsatkichlarga e‘tiborni qaratib o‘tamiz.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda 2023 yilda kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining YAIMdagi ulushi 51,2 foizni tashkil qilgan bo‘lib, bu oldingi yildagiga nisbatan 0,6 birlikka kam. Mamlakat miqyosida kichik biznesning YAIMdagi ulushi o‘zgarishi ijobiy bo‘lmagan. Mazkur ko‘rsatkich tadqiq qilinayotgan davr, ya‘ni 2010-2013 yillarda o‘zining maksimal darajasiga 2016 yilda erishgan bo‘lib, 66,8 foizni tashkil qilgan va keyingi yillarda esa pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Kichik biznes sub‘ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining oshishiga qaramasdan ulushning kamayishi mazkur o‘zgarishning asosiy sababi keyingi yillarda iqtisodiyotda yirik loyihalarni amalga oshirilishi natijasida yirik biznesning ko‘lamini kengayishi ekanligini asoslaydi.

Tadqiqotimiz ob‘ekti hisoblanilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida olib qaraydigan bo‘lsak, kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining YAHMdagi ulushi nisbatan beqaror bo‘lib, o‘sish va pasayish tendentsiyasining ketma-ketlikda kelishi kuzatiladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra 2023 yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 58,7 foizni tashkil qilgani holda oldingi yildagiga nisbatan 2,1 birlikka ko‘tarilishi ta‘minlangan. Ushbu qiymat mamlakat miqyosidagidan 7,5 birlikka katta, shu bilan birga oxirgi yilda ijobiy o‘zgarishi ta‘minlangan.

Bundan, ko‘rinadiki mintaqada kichik tadbirkorlik sub‘ektlarini rivojlantirish masalasini umumiy hisobda talab darajasida deb baholash mumkin. Biroq, kichik tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora – tadbirlarni baholash uchun qator ko‘rsatkichlarni qarab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bu kabi tahlil natijalariga asosida olingan natijalar ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslanganlikni ta‘minlaydi.



Mintaqada kichik tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab – quvvatlash va ularning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotdagi rolini baholash maqsadida qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Buning uchun mintaqada bir qator muhim ko'rsatkichlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushini mamlakat miqyosidagi qiymatlari bilan solishtirildi, ya'ni farqlari hisoblab chiqildi. Natijada, har bir ko'rsatkich bo'yicha mintaqadagi vaziyatni ijobiy yoki salbiy ekanligini baholash imkoniyatiga ega bo'lindi (1-jadval).

1-jadval Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining muhim ko'rsatkichlar bo'yicha ulushining mamlakat miqyosidagi darajasidan farqi²

	YaIM	Bandlik	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari)	Jami qurilish ishlari	Eksport	Import
2010	-0,1	-3,2	2,9	11,5	-2,2	41,7
2011	-1,8	-2,8	0,3	3	-3,6	37,6
2012	1,7	-4,6	3	8,7	-2,8	52,6
2013	1,6	-3	5,9	5,5	-9,2	43
2014	0,8	-2,8	4,7	4,3	-4	-21,2
2015	5,1	-3,4	1,5	8,8	1,4	-22,4
2016	-3,2	-3,1	-18,7	12,8	-18,4	-24,4
2017	-6,8	-2,9	-21	12,6	-13,4	-11,1
2018	-5,4	-0,7	-17,1	14	-17	4,6
2019	0,3	-1,3	-6	13	-6,5	9,1
2020	3,5	-0,3	-3,2	17,6	1,1	19,3
2021	2,2	-0,3	-5,3	13,3	0,3	11
2022	4,8	0,2	-5,5	16,7	-13,2	-5,3
2023	7,5	-0,5	1,4	15,3	-1,4	6,7

Olingan natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasida YAHMda kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushini mamlakat miqyosidagiga nisbatan ijobiy qiymatini 2019 yildan keyingi davrdan boshlanganlinini ko'rsatmoqda va ushbu farqning yuqori sur'atlarda o'shishi kuzatiladi. Jumladan, 2023 yilda mintaqa YAHMda kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushi 58,7 foizga teng bo'lgani holda mamlakat miqyosidagiga nisbatan 7,5 birlikka yuqori qiymatga ega bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichning minimal qiymati 2017 yilga to'g'ri keladi, mazkur yilda mamlakat miqyosidagi ulush 65,3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, mintaqada 58,5 foizga teng bo'lgan. Aniqlanilgan, farqlar bo'yicha variatsion kenglik 14,3 foizni tashkil qilmoqda va bu etarli darajada yuqori qiymat hisoblanadi. Buning asosiy sababi ikkala ko'rsatkichlardagi tebranishlarning yuqoriligi hisoblanadi.

Mintaqada kichik tadbirkorlik sub'ektlarining muhim iqtisodiy – ijtimoiy muammo bandlikni ta'minlashdagi rolini baholash bo'yicha aniqlanilgan farqlarning 2022 yildagi kichkina ijobiy farqni hisobga olmaganda barcha holatlarda manfiy qiymatga ega bo'lmoqda. Bu bir tomondan kichik tadbirkorlik sub'ektlarini bandlikni ta'minlashdagi ahamiyatini nisbatan pastligicha qolayotganligini ifodalasa boshqa tomondan YAHMdagi ulushning yuqori bo'lgani holda bandlar ulushini past bo'lishi kichik tadbirkorlik sub'ektlarida ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligini asoslaydi.

Muhim bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik tadbirkorlik sub'ektlari roli nisbatan past. YA'ni dastlabki yillarda mintaqada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushini yuqori bo'lishi ta'minlangan bo'lsa, keyingi yillarda uning keskin pasayish holatlari kuzatiladi. Jumladan, 2016 va 2018 yillarda ulushning mamlakat miqyosidagiga nisbatan 18,7 va 17,1 foizga kam bo'lishi muammolarning mavjudligidan dalolat beradi. Faqat 2023 yilga kelibgina ijobiy natija kuzatilgan. Bundan ko'rinadiki mintaqada sanoatni rivojlantirish va bunda kichik biznesning imkoniyatlaridan foydalanish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

² Манба: муаллиф ишланмаси



Mintaqada qurilish ishlarini bajarishda kichik tadbirkorlik sub'ektlari ancha faol bo'lib, barcha yillarda mintaqadagi ulushning mamlakat darajasidagidan katta bo'lganligini kuzatish mumkin. Ushbu holatni qurilish hajmi va ko'lami bilan ham asoslash mumkin, ya'ni yirik ob'ektlarni qurishda tabiiyki yirik biznesning ulushi ham yuqori bo'ladi. Qurilish ishlarida kichik biznes ulushini yuqori bo'lishini ta'minlash ikki holat asosida amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, qurilish ishlari kichik miqyosda bo'lgan holatda, ikkinchidan yirik qurilish ob'ektlari katta korxonalar atrofida kooperatsion hamkorlik asosida birlashgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan holatda.

Mamlakat va hududlar kesimidagi eng muhim muammolardan biri bu tashqi savdo hisoblanadi, ya'ni ijobiy saldoni ta'minlash masalasi o'z echimini kutayotgan masalalardan hisoblanadi. Qoraqalpog'iston respublikasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksportdagi ulushini mamlakat miqyosidagiga nisbatan pastligicha qolishi kichik biznes rivojini ta'minlashda muammolar mavjudligini ko'rsatadi. YA'ni, mintaqada kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozorida raqobatbardoshligini nisbatan pastligini ko'rsatadi. Sanoat ishlab chiqarishdagi ulushning beqarorligi, ya'ni ushbu yo'nalishda ham muammolarning mavjudligi keltirib o'tilgan firklarimizni asoslaydi. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mintaqada kichik tadbirkorlik sub'ektlarining eksportdagi ulushi barcha deyarli yillarda manfiy qiymatga ega, faqat 2020-2021 yillarda kichik bo'lsada musbat qiymati ta'minlanilgan. Manfiy qiymatlarning ba'zi yillarda chuqurlashib ketishi, jumladan 2016 yilda faqrni -18,4 birlik, 2017 va 2022 yillarda mos ravishda -13,4 va -13,2 foizni tashkil qilishi bu borada muammolar mavjudligini asoslaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalarini ko'rsatishicha mintaqada kichik biznesning rivojlanishi talab darajasida, ya'ni umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha ulush etarli darajada katta. Biroq, bandlikni ta'minlash, sanoatni rivojlantirishda kichik biznes sub'ektlari imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayapti. Natijada, eksport va import bilan bog'liq muammolar vujudga kelmoqda. YA'ni, etishtirilgan mahsulotlarni chuqur qayta ishlash masalasida muammolar mavjudligi hisobiga kichik biznes sub'ektlarining eksportdagi ulushi past, ammo importdagi ulushi yuqoriligicha qolishi kuzatilmoqda. Fikrimizcha, mintaqada ishlab chiqarish va qayta ishlash sohalari rivojini ta'minlashda kichik biznes imkoniyatlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish yuqorida keltirilgan salbiy holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. E.M. Akhmetshin, E.P. Solodova, A.V. Selyutina, R.I. Sharafutdinov, R.I. Kulmetev. Directions of small business development in housing and communal services of samara region. Paper presented at the Proceedings of the 31st International Business Information Management Association Conference, IBIMA 2018: Innovation Management and Education Excellence through Vision 2020, 3924-3930(2018).
2. A. Mohamad, A.N. Mustapa, H.A. Razak, An Overview of Malaysian Small and Medium Enterprises: Contributions, Issues, and Challenges. Modeling Economic Growth in Contemporary Malaysia, 31-42, (2021).
3. L.A. Omarbakiyev, S.M. Kantarbayeva, A.K. Nizamdinova, S.T. Zhumasheva, G.Zh. Seitkhamzina, A. Saulembekova. Consequences of changing regional integration on environmental development, agricultural markets, and food security. Global Journal of Environmental Science and Management, 9(4), 951-966 (2023). doi: 10.22035/gjesm.2023.04.19
4. Yo. Abdullaev, F. Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent: Mehnat. (2000).
5. A.A. Ambartsumyan. Financial enterprise and system of economic relations and conditions of migration to Uzbekistan. Abstract of dissertation of PhD. Tashkent. (1996).
6. S.S. Gulyamov, L.F. Dogil, D. Semenov. Entrepreneurship and financial business. Tashkent: TSUE. 19-83 (1996).
7. T. Do'stjonov, S. Salaev. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. Urganch: Xorazm. (1997).



8. Q. Muftaydinov. Problems of entrepreneurship development in the conditions of economic liberalization: dissertation of DSc. Tashkent: UzNU. (2004).
9. N.A. Khalmurzaev. Small and medium-sized enterprises in the transition economy of Uzbekistan: Conditions and perspectives. *Central Asian Survey*, 19(2), 281-296 (2000).
10. A. Tikhonov, K. Shchukin, V. Fridman. Main directions of training highly qualified staff for the organization of production and operation of unmanned aerial systems. *Journal of Theoretical and Applied Information Technology*, 101(13), 5149-5160 (2023).
11. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. URL: <https://www.stat.uz/ru/>
12. Mirzanov, B. J. (2022). THE SYSTEM OF NATIONAL ACCOUNTS AS A TOOL FOR MACROECONOMIC ANALYSIS. *Архив научных исследований*, 2(1).
13. Орынбаева, М. К. (2022). PhD, доцент, кафедра «Бухгалтерский учет и аудит», экономический факультет, Каракалпакский государственный университет, Нукус, Республика Узбекистан. *ПРОЦВЕТАНИЕ НАУКИ*, 2(8), 9.
14. Timur, N., Baltashev, J., Bayjanov, S., & Ismaylov, K. (2020). The importance of agricultural marketing services in the development of Agriculture of the Republic of Karakalpakstan. *Journal of Critical Reviews*, 7(10), 2910-2914.
15. Мырзанов, Б. Ж., Орынбаева, М. К., & Ешбанбетов, Е. М. (2022). Роль системы национальных счетов в макроэкономическом анализе. *Процветание науки*, (2 (8)), 11-21.

